



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

FRAZEOLIZMLAR TARIXIY DRAMALARDA MATN YARATISH

VOSITASI SIFATIDA

Qoraqalpoq davlat universiteti

P.f.f d (Ph D) K. Rajapova

Magistr N. Jumagaliyeva

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarixiy dramalarda frazeologizmlarning qo'llanilishi haqida gap ketadi. Shuning bilan birga dramatik asarlarda frazeologizmlar ishtirokida matn yaratishning o'ziga xos usullari bo'yicha ham ma'lumotlar keltirilgan. Hamda M. Shayxzodaning dramalaridagi ba'zi iboralarning qo'llanishi ba ularning mazmuni tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: adabiy til, badiiy til, umumxalq tili, obrazli til, matn tuzilishi, frazema, frazemalar transformatsiyasi, frazeologik neologizm, drama.

Badiiy til – adabiy asarlar yoziladigan til. Yozuvchi hayotni xarakterlar va kartinalar vositasida aks ettirar ekan, jonli xalq tili boyliklaridan ham, adabiy til normalaridan ham keng foydalanadi. O'z navbatida ham jonli tilning, ham adabiy tilning o'sishiga hissa qo'shadi. Yozuvchi asarning temasi, voqealarning mohiyati va personajlarning xarakteriga qarab so'z va iboralar tanlaydi, gap qurilishi usullaridan, dialektlardan, inversiya, arxaizm, neologizm, jargon va boshqa leksik resurslardan foydalanadi.

Badiiy adabiyot tili adabiy va umumxalq tiliga asoslangan bo'lishiga qaramay, so'z ustalari tomonidan pardozlangan, jilolangan poetik tildir. Til-badiiy adabiyotning asosiy qurolidir, hayot hodisalari faktlar bilan birga uning materialidir. So'z – barcha faktlar, barcha fikrlar libosidir. Ammo har bir fakt zamirida ijtimoiy ma'no bor, har bir ma'no zamirida, bir yoki ikkinchi fikr nega bunday-u, nega unday emas, degan sabab bor.

Yozuvchi o'z asari uchun umumxalq tili lug'at tarkibidan so'z olishda san'atning tipiklashtirish qonuniyatiga amal qilar ekan, ana shundagina haqiqiy san'at asari paydo bo'ladi. Shunisi ham e'tiborliki, har bir yozuvchi asarida so'z qo'llash jarayonida ham o'z uslubini namoyon qiladi – natijada bir yozuvchining tili ikkinchi yozuvchining tilidan ozmi – ko'pmi farqlanib turadi. Til badiiy adabiyotda xarakterlar va manzaralar yaratish qurolidir. Shunga ko'ra, adabiyot – so'z orqali badiiy tasvirlash san'atidir.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Badiiy asar tili – obrazli til. Yozuvchi o’z asarida bir qancha yo’llar bilan tilnnig obrazliligiga, tasviriyligiga erishadi. Shulardan biri maxsus badiiy tavsir vositalarini, maxsus leksik resurslarni, poetik qoliplarni, so’z o’yinlarini mohirona qo’llash yo’li bilan asar tilining obrazliligiga erishishdir.

Matn tuzilishi kompozitsion - nutqiy shakllar yig’indisidan tarkib topadi. Kompozitsion nutqiy shakllar til vositalarini saralashda kommunikativ aloqa o’rnatish jarayonida yuzaga keladi. Har bir nutqiy forma -ma’lum mantiqiy mazmun va ma’lum struktural mazmun makon va zamonga qarab farqlanadi. Shular asosida har bir matndagi tasviriylik, xabar berish va fikr yuritish hisobga olinishi kerak.

Predmet va obyektlarning bir-biri bilan yonma-yon holda mustahkam aloqadorligi tasviriylik orqali; fikr mantiqiy mulohaza orqali beriladi. Ana shu aspektlar asosida til birliklarini matnda tanlash imkoniyatlari har xil shakllanadi: minimal tekst matn - spravka, telegramma, ariza, tarjimai hol, qaror, xat, ishonchnoma, tushuntirish xati, gazeta xabari, e’lon kabi, maksimal matn (qissa, doston, poema, roman, dramatik asar).

Frazemalar transformatsiyasi deyilganda, iboraning ma’nosida, tuzilishida, komponent tarkibida yuz beradigan o’zgarishlar sistemasini tushunamiz. An’anaviy frazema bilan o’zgarishga uchragan FBlarni bir-biridan farqlash lozim, chunki an’anaviy frazema til hodisasi bo’lsa, o’zgarishga uchragan FBlar nutq hodisasidir, ularning ayrimlari asta-sekinlik bilan kontekstual hodisadan o’tgan, til hodisasiga o’tishi mumkin.

Tildagi frazemalarning taraqqiyoti va boyishi, tilning boshqa elementlarida bo’lganidek, faqat frazeologik neologizmlarning paydo bo’lishi bilan emas, balki tilda mavjud iboralarning semantik, grammatik va funksional jihatdan yangilanishi asosida ham sodir bo’ladi. Shuning uchun FBlarning o’zgarishi, transformatsiyasi va shu bilan bog’liq masalalar nazariy frazeologiyada hamda uslubiy tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, FBlar transformatsiyasi til birliklari taraqqiyotiiig qonuniy jarayonlaridan biri bo’lib, bu masalani o’rganish o’zbek frazeologik uslubiyatining dolzarb masalalaridan biridir.

Keyingi paytlarda frazeologik birikmalarning matn doirasida o’rganilish muammosi tilshunos olimlarning diqqat-e’tiborini o’ziga jalb qilmoqda. Bu sohada ko’plab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Biz esa frazeologizmlar tarixiy dramada matn yaratish vositasida qo’llanilishini qisman ochib berishga harakat qilamiz. Shuni ta’kidlash lozimki, tilimizdagi so’z va frazeologizmlarning biz uchun ham ularning ko’pchiligidagi ma’noning ancha keng va turli-tuman ekanligi molikdir.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Tilimizdag'i bil, bosh, ko'z, til, ko'l, tushmoq, chiqmoq, o'tmoq, qo'yemoq singari so'zlar qatnashgan frazeologizmlar anglatgan ma'nolar doirasini eslashning o'zi kifoya. Shulardan bosh va ko'z so'zlari yordamida tuzilgan frazeologizmlar anglatgan ma'nolarga e'tibor beraylik:

Bosh: g'amga botmoq, bo'ysunmoq, sog'lik-salomatlilik, shod-xurramlik, azob-uqubat, shovqin-suron, yordam bermoq...

Ko'z: aldamoq, fikran hisobga olmoq, kuzatmoq, o'zini ko'rsatish yoki ko'rsatmaslik, jirkanish hissini uyg'otmoq, ro'para bo'lmoq, o'ziga tortmoq...

Ana shu misollarning deyarli hammasiga badiiy asar tilida duch kelish mumkin.

Muhringizning bor ekan hukmi, obro'yi –

Ayting menga bosh eg'sin beklar yurt bo'yi ("J.M." 347- b) Ammo boshga tushishi yomon tushkunlik

Shohning donoligi bo'ldi uch kunlik ("J.M." 308-bet)

Ammo Sulton Ulug'bekka, sohibi tojga

-Bosh eg'mayman egolmayman, yo'q, egmayman. ("M.U."135-b)

Bosh ustiga! Xush kelgaylar Gavharshod bonu! ("M.U." 89-bet)

Dushmanni ko'ziga ilmagan sardor

U sardor emasdur, maqtanchoq, ayyor ("J.M."324-b)

Sharafdan ko'z yumib topilgan najot.

O'g'ridan sadaqa so'rashday uyat! ("J.M." 389-b)

Dramalardan olingan bu misollar yuqoridaagi fikrni isbotlaydi. Darhaqiqat, adabiy asarlar tilida leksik birliklar o'zining keng jilolarini namoyish qila oladi. So'z ma'nolarining o'zgarishi, kengayib borishi, birdaniga bir necha ma'nolarni anglatishi va xatto lug'atlarimizda qayd etilmagan nozikliklar kasb etishi hamda lug'atlarda qayd etilmagan holatlarni yuzaga chiqarishda badiiy matn katta imkoniyat sanaladi.

Maqsud Shayxzoda Chingizzon, Xorazmshoh, Mirzo Ulug'bek, Bobo Kayfiy, Abdulatif, Gavharshodbegimlarning nutqi yanada ta'sirli chiqishi uchun frazeologizmlardan juda mohirona foydalangan. Dramada iboraning obrazli asosidan metaforik kontekst hosil qilish usulidan yasalgan frazemalarni ham ko'rishimiz mumkin. Metaforik kontekst deb ichki bog'lanishli fon(ko'chim)lar yig'indisiga aytildi, ular semantik ikki planlilik, ikki ma'no qatorining parallel qo'llanishiga asoslanadi. Bu usul ibora ichki shakllanish aktualizatsiyasiga va shu asosda iboraning metaforik ma'nosini rivojlantiruvchi holat, tasvirning vujudga kelishiga tayanadi. Bunda iboraning qo'llanish zonasi "uning doirasidan chiqib,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

metaforalar zanjiriga bog'lanadi, bu zanjirning dastlabki xalqasi, o'sha ibora bo'ladi. Bunday metaforik kontekst orqali bayon qilingan fikr o'sha iboradan o'sib chiqadi, emotsiyonal va ta'sirchan bo'ladi, kishining ongiga, qalbiga, his-tuyg'usiga borib etadi.

Frazemalarning qo'llanish darajasiga u yoki bu yozuvchining ma'lum bir asardagi qo'llanish darajasi bilan doimo mos kelavermaydi. Frazemalarning asosiy qismi ularni muayyan asardagi qo'llanishi nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, ham chastotali iboralar qatoriga kirishi kerak, chunki bunday ekspressiv vositalar, yuqorida ta'kidlanganidek, u yoki bu asarda asosan bir marta qo'llanishi bilan qimmatlidir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Rahmatullaev Sh. Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari. Toshkent, 1955.
2. Yo'ldoshev B, Pardaev Z, Bobojonov F. Badiiy til masalalari, Navoiy, 2001.
3. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari, samarqand, 1999.
4. M. Shayxzoda. Mirzo Ulug'bek: Besh pardali tarixiy fofja/ M.
5. M. Shayxzoda. Dunyo boqiy: SHe'rlar, dostonlar, dramalar/ M. Shayxzoda.- Toshkent: G'afur G'ulom.1988.